



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH YO'NALISHLARI

Raxmonov Otabek
Mustaqil tadqiqotchi
raxmonov_o@bk.ru

Annotatsiya:

Ushbu tezisda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ularni boshqarish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida raqobatbardoshlikni oshirishda ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsiyalar, marketing, boshqaruv sifati va moliyaviy barqarorlik muhim omillar ekani asoslangan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, raqobatbardoshlik, raqobat ustunligi, boshqaruv, innovatsiya, marketing, moliyaviy barqarorlik, samaradorlik.

Kirish

Hozirgi globallashuv va bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan sharoitda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Chunki sanoat tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, eksport hajmini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda yetakchi o'rin egallaydi. Shu bois sanoat korxonalarining ichki va tashqi bozorlarda mustahkam mavqega ega bo'lishi, avvalo, ularning raqobatbardoshlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Raqobatbardoshlik sanoat korxonasining nafaqat mahsulot sifati, tannarxi va narx siyosati bilan, balki ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyati,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

boshqaruv tizimi, resurslardan foydalanish darajasi, kadrlar salohiyati hamda bozor talablariga moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish va ularni samarali boshqarish yo'nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirish faqat mavjud resurslardan foydalanish bilangina cheklanmay, balki boshqaruvning ilg'or usullarini joriy etish, innovatsiyalarni keng qo'llash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va bozor kon'yunkturasiga mos strategiyalarni ishlab chiqarishni ham talab etadi. Bu esa sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikka ta'sir qiluvchi omillarni tizimli ravishda baholash va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi

Mazkur tadqiqot mavzusini yoritishda sanoat korxonalarini raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar hamda ularni boshqarish yo'nalishlariga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda kompleks va ko'p omilli jarayon sifatida talqin etilmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalar raqobatbardoshligi faqat mahsulotning sifat ko'rsatkichlari yoki narx darajasi bilan cheklanib qolmaydi, balki ishlab chiqarishning texnologik darajasi, innovatsion faollik, marketing boshqaruvi, resurslardan foydalanish samaradorligi, kadrlar salohiyati hamda moliyaviy barqarorlik kabi omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan mazkur muammoni tadqiq etishda alohida omillarni emas, balki ularning o'zaro aloqadorligi va tizimli ta'sir mexanizmlarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

V. Rozhko va D. Alyoshyn (2024) raqobatbardoshlikni boshqarishni globallashtirish, bozor kon'yunkturasi tez o'zgarishi va tashqi muhit beqarorligi sharoitida korxonada turgan murakkab strategik vazifa sifatida baholaydilar. Ularning yondashuvida mahsulotning texnik parametrlari, yuqori sifati, noyobligi va buyurtmalarni tezkor bajarish imkoniyati raqobat ustunligining asosiy manbalari sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, mualliflar innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, marketing strategiyasini takomillashtirish, bozor segmentatsiyasi va mijozlar bilan samarali aloqalarni rivojlantirishni ham korxonada raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillar qatoriga kiritadilar. Ularning korxonada faoliyatini SWOT tahlili asosida baholashi raqobatbardoshlikning ichki imkoniyatlar va tashqi sharoitlar o'zaro ta'siri natijasida shakllanishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, unda raqobatbardoshlik faqat ishlab chiqarish natijasi sifatida emas, balki strategik boshqaruv mahsuloti sifatida talqin etiladi.

Mazkur yondashuv A. Abdullaieva va K. Michalunyk tadqiqotida yanada aniqlashtirilgan bo'lib, unda raqobat ustunligi mahsulot va xizmatlarning korxonaga raqiblardan ustun turish imkonini beruvchi xususiyatlari majmui sifatida izohlanadi. Mualliflar narx va xarajatlarni ratsionallashtirish, mahsulot differensiasiyasi, assortimentni kengaytirish, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, bozorni segmentlash va talab o'zgarishlariga moslashuvchanlikni ustuvor omillar sifatida qayd etadilar. Shu bilan birga, mehnat unumdorligi, xodimlar malakasi, samarali menejment, servis sifati va ishlab chiqaruvchi imiji ham raqobatbardoshlikning muhim tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etiladi. Bizningcha, ushbu yondashuv avvalgi tadqiqotlardagi strategik va texnologik omillarni bozor talabi, iste'molchi xulqi va korxonaning tashqi muhitga moslashuvchanligi bilan to'ldiradi. Bu esa raqobatbardoshlikni faqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

emas, balki bozor subyektii sifatidagi faollik bilan ham baholash zarurligini asoslaydi.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar orasida moliyaviy ko'rsatkichlarning o'rnii alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, T. Nguyen va V. Nguyen (2020) ROA, ROE va ROS kabi rentabellik ko'rsatkichlarini korxonaning barqaror raqobat ustunligini ifodalovchi muhim mezonlar sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, yuqori foydalilik darajasi korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi, resurslar bazasini mustahkamlaydi va bozordagi raqobat pozitsiyasini kuchaytiradi. Ushbu yondashuv sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholashda moliyaviy natijadorlikning faqat oqibat emas, balki keyingi rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi omil ekanini ko'rsatadi.

R. Stefko va hammualliflar (2021) esa likvidlik ko'rsatkichlarini korxonaning moliyaviy sog'lomligi va to'lovga qobiliyatligini ifodalovchi muhim omil sifatida baholaydilar. Ularning ta'kidlashicha, yetarli likvidlik korxonaning bozordagi ishonchliligini oshiradi, biroq ortiqcha likvid mablag'larning mavjudligi resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelib, umumiy faoliyat samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bizningcha, bu yondashuv raqobatbardoshlikni ta'minlashda moliyaviy ko'rsatkichlarning nafaqat mavjudligi, balki ularning optimal darajada boshqarilishi ham muhimligini ko'rsatadi. Chunki moliyaviy resurslarning haddan tashqari passiv holatda saqlanishi ishlab chiqarish va innovatsion rivojlanish salohiyatini cheklaydi.

Leverage va kapital strukturasi bilan bog'liq qarashlar ham sanoat korxonalari raqobatbardoshligining moliyaviy asoslarini chuqurroq ochib beradi. A. Febriyanti va B. Nugroho (2025) qarz yuklamasining mo'tadil darajasi korxonaning o'sish imkoniyatlarini kengaytirishi, biroq uning haddan tashqari ortishi rentabellik va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ushbu fikrni Y. Kim va hammualliflar (2023) kapital strukturasi nuqtayi nazaridan to'ldirib, qarz



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

va o'z kapitali o'rtasidagi maqbul nisbat firma qiymatini hamda uning bozor raqobatbardoshligini oshirishini asoslaydilar. Ushbu ikki yondashuv bir-birini mantiqan to'ldiradi, chunki ular korxonaning moliyaviy siyosatida o'sish va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

N. Vlasova va O. Nosyriev (2020) kapital struktura va leverage ko'rsatkichlarini mahsulot bozori raqobati darajasi bilan bog'liq holda tahlil qiladilar. Ularning fikricha, bozor konsentratsiyasi va raqobat muhiti korxonaning moliyaviy qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ayrim tarmoqlarda yuqori leverage korxonaning bozor kuchi va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bizningcha, ushbu yondashuv moliyaviy boshqaruvni ichki korporativ masala sifatida emas, balki bozor muhiti bilan chambarchas bog'liq hodisa sifatida ko'rib chiqish lozim degan muhim nazariy xulosaga olib keladi.

Moliyaviy barqarorlik masalasi N.Chrisnando va hammualliflari (2024) tadqiqotida yanada tanqidiy ruhda yoritilgan. Ular Altman Z-score va boshqa modellarga tayangan holda moliyaviy tanglik holatidagi korxonalarda raqobatbardoshlikni saqlab qolish maqsadida daromadlarni manipulyatsiya qilishga moyillik kuchayishi mumkinligini qayd etadilar. Bunday holat qisqa muddatli natijalarda ijobiy taassurot uyg'otishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda korxonaning ishonchliligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muallif fikricha, ushbu yondashuv raqobatbardoshlikni faqat joriy natijalar emas, balki uzoq muddatli barqarorlik va boshqaruv sifati asosida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi moliyaviy omillarni yagona boshqaruv tizimi doirasida umumlashtirgan yondashuv E. Varaksina va A. Perebyinis (2020) tadqiqotida o'z ifodasini topgan. Ular moliyaviy resurslarni rejalashtirish, jalb qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilishga asoslangan aniq moliyaviy strategiya sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

asoslaydilar. Bizningcha, mazkur yondashuv avvalgi tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan rentabellik, likvidlik, leverage, kapital struktura va moliyaviy sog‘lomlik kabi ko‘rsatkichlarni yagona strategik boshqaruv mexanizmiga birlashtirish imkonini beradi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi ko‘p omilli va tizimli iqtisodiy hodisa ekanini ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar mahsulot sifati, innovatsiya, marketing, servis va kadrlar salohiyatiga urg‘u bersalar, boshqa olimlar moliyaviy natijadorlik, likvidlik, kapital struktura va moliyaviy barqarorlikni ustuvor omillar sifatida ko‘rsatadilar. Bizningcha, ushbu yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro to‘ldiradi. Shu sababli sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini tadqiq etishda texnologik, tashkiliy-boshqaruv, bozor va moliyaviy omillarni kompleks tarzda o‘rganish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi zamonaviy iqtisodiy sharoitda ularning bozor talablariga moslashish darajasi, ichki resurslardan foydalanish samaradorligi hamda strategik boshqaruv sifatini ifodalovchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biridir. Raqobatbardoshlikning shakllanishi va rivojlanishi turli omillar ta‘sirida yuz beradi. Mazkur omillarni mazmunan ishlab chiqarish-texnologik, bozor-marketing, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy omillarga ajratish mumkin. Bunday tasnif ularning korxonalar faoliyatidagi o‘rni va ta‘sir mexanizmini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Birinchi, ishlab chiqarish-texnologik omillar sanoat korxonalarini raqobatbardoshligining asosiy tayanchini tashkil etadi. Mahsulotning yuqori sifati, texnik parametrlarining takomillashganligi, ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilishi, avtomatlashtirish va modernizatsiya



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

jarayonlarining izchil amalga oshirilishi korxonaning bozor ustunligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Ayniqsa, mahsulotning noyoblighi va iste'molchi ehtiyojiga mosligi raqobat kurashida korxonaning pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shu ma'noda, ishlab chiqarish salohiyatining texnologik yangilanish bilan uyg'unlashuvi sanoat korxonasining uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantiradi.

Ikkinchidan, bozor va marketing omillari korxonaga raqobatbardoshligini tashqi muhit bilan bog'lovchi muhim vosita hisoblanadi. Bozor segmentatsiyasini to'g'ri amalga oshirish, iste'molchilar ehtiyojini o'rganish, marketing tadqiqotlarini muntazam olib borish, samarali narx siyosatini yuritish va talab o'zgarishlariga tez moslashish korxonaning raqobat pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahsulot differensiasiyasi, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, kafolat va kafolatdan keyingi servis tizimining samarali yo'lga qo'yilishi ham korxonaning bozordagi imiji va jozibadorligini oshiradi. Fikrimizcha, bozor talabini chuqur anglamagan va marketing yondashuvlarini yetarli darajada rivojlantirmagan sanoat korxonasi hatto yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lsa ham barqaror raqobat ustunligini saqlab qola olmaydi.

Uchinchidan, tashkiliy-boshqaruv omillari raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim integrallashuvchi rol o'ynaydi. Bunda korxonaga boshqaruv tizimining moslashuvchanligi, strategik rejalashtirish sifati, resurslarni taqsimlash samaradorligi, xodimlar malakasi va mehnat unumdorligi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, malakali kadrlar salohiyati va samarali menejment tizimi korxonaning innovatsion rivojlanishiga, ichki muvozanatni saqlashiga va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob qaytarishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan inson kapitalini rivojlantirish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash va ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish korxonaga raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Toʻrtinchidan, moliyaviy omillar sanoat korxonasining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi hal qiluvchi omillar sirasiga kiradi. Korxonaning faoliyatining rentabellik darajasi, likvidlik holati, qarz yuklamasi, kapital strukturasi va umumiy moliyaviy barqarorligi uning raqobat kurashidagi imkoniyatlarini bevosita belgilaydi. Yuqori rentabellik korxonaga ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalarni moliyalashtirish va investitsiyalarni jalb etish imkonini bersa, optimal likvidlik darajasi uning toʻlovga qobiliyatligini va bozordagi ishonchligini taʼminlaydi. Shu bilan birga, qarz va oʻz kapitali oʻrtasidagi maqbul nisbat korxonaning oʻsish salohiyati hamda moliyaviy xavfsizligini bir vaqtning oʻzida taʼminlashga xizmat qiladi.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy boshqaruvning sifati alohida ahamiyatga ega. Chunki moliyaviy resurslarni oqilona rejalashtirish, ularni samarali jalb etish, taqsimlash va nazorat qilish korxonaning faoliyatining barcha boshqa yoʻnalishlari uchun zarur iqtisodiy zamin yaratadi. Shu sababli korxonalarda moliyaviy strategiyani ishlab chiqish va uni umumiy raqobat strategiyasi bilan uygʻunlashtirish zarur. Bunda qisqa muddatli foyda ortidan quvish emas, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik, investitsion faollik va resurslardan samarali foydalanish ustuvor boʻlishi lozim.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi koʻplab omillarning oʻzaro uygʻun taʼsiri natijasida shakllanadi. Ular orasida ishlab chiqarish-texnologik, marketing, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillarning har biri korxonaning faoliyatiga mustaqil taʼsir koʻrsatishi bilan birga, ular oʻzaro uzviy bogʻliq holda yagona raqobatbardoshlik tizimini hosil qiladi. Shu bois sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish strategiyasi kompleks yondashuvga asoslanishi, barcha omillar oʻrtasidagi funksional bogʻliqlikni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi ko‘p omilli va murakkab iqtisodiy hodisa bo‘lib, uning shakllanishi hamda rivojlanishi ishlab chiqarish-texnologik, marketing, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy omillarning o‘zaro uyg‘un ta’siri asosida yuz beradi. Zamonaviy bozor sharoitida korxonaning raqobat ustunligi faqat mahsulot sifati yoki narx darajasi bilan emas, balki innovatsion salohiyat, resurslardan foydalanish samaradorligi, boshqaruv tizimining moslashuvchanligi, bozor talablariga tezkor javob qaytarish qobiliyati hamda moliyaviy barqarorligi bilan ham belgilanadi.

Bizningcha, sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlari kompleks yondashuv asosida shakllantirilishi lozim. Bunda alohida omillarni mustaqil ravishda emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi va tizimli ta’siri nuqtayi nazaridan baholash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, korxonalarda innovatsion rivojlanish, samarali marketing, oqilona resurs boshqaruvi va puxta moliyaviy strategiyani uyg‘unlashtirish raqobat ustunligini mustahkamlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Abdullaieva A., Michalunyk D. (2025). Analysis of factors affecting the competitiveness of enterprises in globalization. Market Infrastructure.
2. Chrisnando, N., Nilmawati, N., Widjanarko, H., & Hikmah, K. (2024). Factors Affecting Profitability of Food and Beverage Industries: A Resource-Based View and Competitiveness Approach. Indikator: Jurnal Ilmiah Manajemen dan Bisnis.
3. Febriyanti A., Nugroho B. (2025). Analysis of the Influence of Internal Factors on Firm Performance: A Systematic Literature Review. Dinasti International Journal of Economics, Finance & Accounting.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

4. Kim Y., Jung S., Kim C. (2023). The Impact of Capital Structure on the Profitability Performance of ICT Firms. Processes.
5. Nguyen, T., & Van Nguyen, C. (2020). The Determinants of Profitability in Listed Enterprises: A Study from Vietnamese Stock Exchange. Journal of Asian Finance, Economics and Business, 7, 47-58.
6. Rozhko V., Alosyn D. (2024). Research and Improvement of Competitive Advantages of the Enterprise. The problems of economy.
7. Štefko, R., Vašaničová, P., Jenčová, S., & Pachura, A. (2021). Management and Economic Sustainability of the Slovak Industrial Companies with Medium Energy Intensity. Energies.
8. Varaksina E., & Perebyinis A. (2020). Financial resources management as a key factor for enterprise competitiveness.
9. Vlasova N., Nosyriev O. (2020). Assessing the Influence of Industry Factors on the Financial Results of Industrial Enterprises. Business Inform, 5, 394-402.